

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KREDITLASHDAGI DOLZARB MASALALAR

Xojimatov Xamidullo Mamirjonovich

Oriental universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10616993>

Respublikamiz iqtisodiyotini yuqori sur'atlarda rivojlantirish omillaridan biri kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini taraqqiy etishini ta'minlashdir. Yurtimizda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yilishi va rivojlanishi, mahalliy xom-ashyo va qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashni yanada rivojlantirish, O'zbekiston Respublikasi ichki bozorini iste'mol tovarlari va chakana xizmatlar bilan to'ldirish kabi muommolarni hal qilish, ularni milliy va xorijiy kredit liniyalari hisobidan moliyaviy ehtiyojlarini qondirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Respublikamizda kichik biznesni rivojlantirish masalasi, birinchi navbatda, bu sohani rivojlantirishga banklarning o'z mablag'lari, davlat dasturi va grantlar hamda xorijiy kredit liniyalari orqali yo'naltirilayotgan mablag'lar hajmini ko'paytirish lozimligini, kredit berish usullarining ba'zi jihatlarini takomillashtirish va soddalashtirish kerakligini zarurat qilib qo'ymoqda.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2023-yil 14-sentyabrdagi PQ-306-sonli Qarori¹ orqali "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturini amalga oshirish hamda dastur orqali kichik biznesni subyektlarini 2023 — 2026-yillar oralig'ida davlat mablag'lari hisobidan 6 trillion so'm va xalqaro moliya institutlarining 1,2 milliard AQSh dollari miqdoridagi mablag'lari yo'naltirilishi belgilab olindi.

Kichik biznes subyektlari va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish aholi bandligini ta'minlashga erishilsa ichki bozordan tashqari eksport salohiyatini oshirishga erishilishi hamda import hajmini kamaytirishga erishish mumkin. Shu maqsadni ko'zlab banklarimiz tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlab arzon narxlardagi kredit tizimini joriy etish zarur.

Davr	Jami	shundan:						
		Sanoat	Qishloq xo'jaligi	Qurilish	Savdo va umumiy ovqatlanish	Transport va kommunikatsiya	Aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun	Boshqalar
1	2	3	4	5	6	7	8	9
2020-yil	48 389,7	15 402,1	6 854,7	3 167,7	9 386,0	4 390,6	3 602,1	5 586,5
2021-yil	59 552,1	14 632,7	9 814,5	3 786,4	15 536,9	2 832,0	6 830,0	6 119,6
2022-yil	69 770,3	20 312,1	6 313,2	6 944,2	17 159,9	8 943,0	9 094,4	1 003,6
01.12.2023	68 961,6	17 718,5	6 931,3	6 033,1	17 569,3	6 063,9	8 860,1	5 785,4

1-jadval. Kichik tadbirkorlik subyektlariga hamda aholiga tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadlari uchun ajratilgan kreditlar², (mlrd. so'm).

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2023-yil 14-sentyabrdagi PQ-306-sonli Qarori

² cbu.uz- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti malumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rishimiz mumkinki oxirgi to'rt yillikda banklarimiz tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlariga hamda aholiga faoliyatini amalga oshirish maqsadida ajratilgan kreditlar sezilarli ravishda oshganligining guvohi bo'lishimiz mumkin, ya'ni 142.5 foizgacha oshgan bo'lsa asosiy ulush esa hali ham sanoat hamda savdo va umumiy ovqatlanish sohalariga ajratilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Qishloq ho'jaligi tarmoqlariga ajratilayotgan kreditlar miqdori deyarli o'zgarishsiz qolishi, bozor iqtisodiyoti sharoitida keyingi davrlarda bu soha ortda qolish tendensiyasini shakllantirishi mumkin. Bu borada davlat dasturlarini tuzish va grantlarni jab qilish orqali rivojlantirish choralari amaliyotga joriy etish talabini shakllantiradi.

Bugungi kunda kichik biznes subyektlari banklardan kredit olishda dolzarb muammolariga duch kelishmoqda. Buning asosiy sabablari esa, tuzilgan biznes rejasining mukammal emasligi, iqtisodiy hamda moliyaviy ko'rsatkichlarining pastligi, kredit shartlarini tushunish va bank bilan doimiy aloqada bo'lmasliklari sabablidir. Tijorat banklarimiz tomonidan kichik biznes subyektlarini kreditlashni takomillashtirish uchun, tadbirkorlarning savodhonlik darajasini oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi, shu orqali banklarimizda risk darajasi kamaytirib kreditlash tizimi kengaytira olamiz.

Biznes rejani to'liq tuzishni, hisob-kitob tizimini yaxshi olib borishni, tijorat banklari bilan doimiy aloqalarni olib bora oladigan hamda bu tizimni yaxshi tushuna oladigan kichik biznes vakillari, tadbirkorlar hamda aholi qatlami bilan banklar samarali ishlab o'z sohalariga doir kredit linyalari bilan ta'milay olish darajasiga ega bo'lishadi. Bu borada ATB "Qishloq qurilish bank" tasarrufi ostida ATB "Biznesni rivojlantirish bank" taskil etilgani bejizga emas deb bilamiz

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" gi 2023-yil 14-sentyabrdagi PQ-306-sonli Qarori
2. U.P.Umurzakov, A.J.Toshboyev. Kichik biznes va tadbirkorlik/o'quv qo'llanma. Toshkent: "Sano-standart", 2014.-480 bet.
3. cbu.uz- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti